

O‘ZBEKISTON MILLIY DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03\30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KARIMOVA NILUFAR BOLTABOYEVNA

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Karimova Nilufar Boltaboyevna

Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi..... 3

Каримова Нилуфар Болтабоевна

Методика развития информационной компетентности студентов средствами цифровых образовательных технологий..... 21

Karimova Nilufar Boltaboyevna

Methodology for the development of information competence of students through digital educational technologies..... 40

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

O‘ZBEKISTON MILLIY DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03\30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KARIMOVA NILUFAR BOLTABOYEVNA

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped 8534 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Panjiev Qurbonniyoz Berdievich
pedagogika fanlari doktori, professor

Azizova Qizlarxon Mashrabovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
p.f.n.,dotsent

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati: Jahon ta'lim muassasalarida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ta'lim 2030/Inchxon deklaratsiyasi"¹ asosida ta'lim tizimining barcha bosqichlari va tuzilmalarida hamma uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, samarali va qulay o'qitish usullarini tadbiq qilish bu o'rinda, raqamli ta'lim texnologiyalari muhitida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida texnologik innovatsiyalarning birligini ta'minlash, ilmiy va zamonaviy pedagogik muhitni yaratish bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarni axborot kompetentligini oshirish, pedagogik faoliyatini shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, ijodkorlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, axborot va pedagogik faoliyat madaniyati muhitini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlantirishning raqamli texnologiyasini joriy etishning nazariy imkoniyatlarini aniqlashtirish, mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari, modellarini takomillashtirish, xususiy-didaktik o'qitish metodlari va elektron platformalar, virtual va animatsiyali ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga integratsiyalash, raqamli ta'lim ilatformalarini yaratish, innovatsion loyihalar va startandlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarni tahlil etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Natijada raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak o'qituvchilarning axborot ta'lim vositalaridan foydalanish kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida Farmoni, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 13-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohatlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda talabalarning axborot kompetentligini shakllantirishda B.S.Abdullayeva, R.G.Safarova, Yu.M.Asadov, J.E.Usarov, M.M.Vaxobov, SH.Z.Taylanova, S.O'.Sharifzoda, H.I.Xanbabayev, P.E.Nuraliyev, F.P.Raxmonqulov, S.T.Ruzmetova, Sh.Sh.Sadikov, F.P.Davranova, A.N.Ubaydullayev, A.A.Allamuradovlar tamonidan tadqiqotlar olib borilgan.

MDH olimlaridan I.A.Petrov M.N. T.V.Kuznetsova O.V.Treskina, Y.E.V.Siganova N.S.Lebedeva raqamli D.V.Grigorev Ye.I. Rogova, A.G.Xripkovoy, T.P.Xrizman, Ye.R. Yarskoy-Smirnovoylar talabalar axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini tadqiq etishgan.

Xorijlikdan R.L.Jones A.E.Smith M.T.Garcia d S.J. Kim Y. Nakamuraning Nemis olimi H.G.Müller R.A.Peterson, P. R. Singh, C.J.O'Reillylar tadqiqotlarida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishga yangi yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqoti rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish

Tadqiqotning ob’ekti sifatida raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo‘lib tajriba-sinov ishlarida Namangan davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 537 nafar talabari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan adabiyotlar tahlili, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, umumlashtirish, so‘rovnoma, test, intervyu, modellashtirish, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: quyidagilardan iborat
raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari sinergetik ta’sirga ega bo‘lgan raqamli pedagogik jarayonning moslashuvchanlik tamoyilini elektron ta’lim muhitini intensiv yaratish funksiyasi mazmuniga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi ta’lim jarayonlarini qiyosiy tahlil qilishda manbalar bilan ishlash natijadorligini oshirishga qaratilgan real holatlarga mos keyslar tuzish, interaktiv metodlar va padkaslar mazmuniga ko‘ra axborot almashish hamda ma’lumotlarni tanqidiy baholash, hamkorlikda qayta ishlash, mashg‘ulot ssenariylariga mos maqsadli pedagogik infratuzilmani intensivlashtirish asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta’limning amaliy yo‘nalganligini ta’minlashga moslashtirilgan tashkiliy-metodik ta’minotni maqsadli loyihalashtirish hamda ishbilarmonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan rolli o‘yinlarni oddiydan murakkabga qarab qo‘llash va didaktik va shaxsiy tayyorgarlikni muntazam hisobga olish asosida takomillashtirgan;

raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligi diagnostik tartiblash, keysli mashg‘ulotlar loyihalarini ta’limiy mazmunga mos ravishda mustaqil vizuallashtirish hamda taqdim etish jarayonlari algoritmini prognostik loyihalash, manbalar bilan ishlash va ijodiy izlanishlarni shaxsiy refleksiya imkoniyatlariga intensiv uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi asosida “Общая педагогика” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan, (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “29” sentyabrdagi 438-sonli buyrug‘iga asosan 438515 raqamli nashr ruxsatnomasi).

raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi asosida “Oila pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan, (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan № 429-390 raqamli nashr

ruxsatnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot metodologik bazasining ta'minlanganligi, pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi; keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati axborot raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabarning axborot kompetentligini rivojlantirish komponentlari, mezon va ko'rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarning axborot kompetentligini faol o'qitish metodlarining ahamiyatini empirik asoslanganligi, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish modelining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari sinergetik ta'sirga ega bo'lgan raqamli pedagogik jarayonning moslashuvchanlik tamoyilini elektron ta'lim muhitini intensiv yaratish funksiyasi mazmuniga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Oila pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'iga asosan № 429-390 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi ta'lim jarayonlarini qiyosiy tahlil qilishda manbalar bilan ishlash natijadorligini oshirishga qaratilgan real holatlarga mos keyslar tuzish, interaktiv metodlar va padkaslar mazmuniga ko'ra axborot almashish hamda ma'lumotlarni tanqidiy baholash, hamkorlikda qayta ishlash, mashg'ulot ssenariylariga mos maqsadli pedagogik infratuzilmani intensivlashtirish asosida takomillashtirishga oid xulosalar "Umumiy pedagogika (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanmaga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil "29" sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan 438515 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning axborot kompensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelini shakllantirishga sharoit yaratilgan;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlashga moslashtirilgan tashkiliy-metodik ta'minotni maqsadli loyihalashtirish hamda ishbilarmonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan rolli o'yinlarni oddiydan murakkabga qarab qo'llash va didaktik shaxsiy tayyorgarlikni muntazam hisobga olish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar "Oila pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-

noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan 429-390 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

raqamli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish samaradorligini diagnostik tartiblash, keysli mashg‘ulotlar loyihalarini ta‘limiy mazmunga mos ravishda mustaqil vizuallashtirish hamda taqdim etish jarayonlari algoritmini prognostik loyihalash, manbalar bilan ishlash va ijodiy izlanishlarni shaxsiy refleksiya imkoniyatlariga intensiv uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Oila pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11- noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan 429-390 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi samaradorligini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobotsiyasi: Tadqiqot ishining mazmuni 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar hamda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarning axborot kompetentligini raqamli ta‘lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari**” nomli birinchi bobida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish omillari, talabalarning axborot kompetentligini virtual va oraliq o‘qitish jarayonlarini shakllantirishning nazariy asoslari, funksiyalari, turlari, shakllari, maqsad va vazifalari tavsiflanadi.

Prezidentimizning Oliy majlisga yo‘llagan Murojatnomasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalariga raqamli ta‘lim texnologiyalarini keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida ham ko‘rsatilgan edi. Shu bo‘isda “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” da amalga oshirishga taaluqli davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini va hayot sifatining barqaror yaxshilanishini ta‘minlash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish va “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror

qabul qilindi. Qarorda mamlakatimizni rivojlantirish maqsadida har bir sohani avtomatlashtirish, axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash orqali yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish uchun islohatlar olib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamizda raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish A.S.Karimov, Z.Z.Ziyoev, Z.X.Abdurahmonov, A.T.Naimov, X.Sh.Ismailovalar tadqiqotlarida ta'lim jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni tushunishida va ularni hal qila olishida tasavvurga ega bo'lishi aniqlangan. A.S.Karimov, axborot texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rnini o'rganar ekan, axborot kompetentligini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlagan.

Z.Z.Ziyoev o'z tadqiqotlarida axborot kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va internet resurslarining ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishini o'rganadi.

Sh.B.Mahmudov axborot kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining o'qitish metodologiyasining muhimligini ta'kidlaydi. U, axborot texnologiyalari ta'limda interaktiv vositalar va onlayn kurslarning keng qo'llanilishini ta'kidlash bilan birga, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish va ma'lumotlarni validatsiya qilishning muhimligini ajratib ko'rsatadi.

R.A.Toshpulatov axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qitish jarayoniga integratsiyasini o'rganar ekan, talabalar axborot kompetentligini rivojlantirishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning zarurligini ta'kidladi. U o'quvchilarni axborot manbalarini to'g'ri tanlash va ulardan maqsadli ravishda foydalanish bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish zarurligini bildirgan.

O.M.Kamilov o'z tadqiqotlarida, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda axborot xavfsizligi masalasini muhim deb biladi. U, talabalar axborotlarni faqat olish bilan cheklanmasdan, ularni ehtiyotkorlik bilan ishlashni, axborotlarni ishonchli manbalardan olish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni o'rganishlari kerakligini ta'kidlaydi.

A.A.Omonov hamda U.M.Rasulovlarning ta'kidlashicha ta'lim sohasini raqamlashtirish bu- katta bazadagi axborotlarning elektron shakllarini yaratish, ma'lumotlarni bir-birlari bilan almashish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim va boshqaruv jarayonini, har kungi ijtimoiy holatlarni yaxshi tomonga o'zgartirishni anglatadi.

J.B.Orashev hamda N.A.Inayatovlarning yozgan ilmiy maqolasida oliy ta'lim muassasalarining barcha ta'lim yo'nalishlarida o'quv jarayonlarini tashkil etishdagi raqamli ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari va ahamiyati xususida fikrlarini bayon etganlar.

Bizning fikrimizcha raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish, texnologik bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini o'rganishlari bugungi rivojlangan zamonimizning talabi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlari, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish

modeli, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish bayon etilgan. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi. Ushbu model, nafaqat talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantiradi, balki ularni raqamli dunyoda yuqori natijalarga erishishlari uchun muhim bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash orqali biz ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodni yangi imkoniyatlar bilan qurollantirishga xizmat qilamiz. Pedagogik jarayonlarni modellashtirishda pedagogik tadqiqotda tarkibiy va funksional modelning asosiy maqsadi o'rganilayotgan ob'ekt tuzilishining bajariladigan funksiyalar bilan bog'liqligini qamrab olishdir. Ushbu turdagi model funksional va tarkibiy qismlarning majburiy taqdimotini o'z ichiga oladi. Mazkur modelning funksional jihati – beshta tarkiy komponentdan tashkil topgan bo'lib, har bir komponent o'ziga xos funksiyalarni bajarishni ta'minlaydi.

Bu tarkib: maqsad, mazmunli, operatsion, baholash va natija komponentlarini o'zida namayon etadi. Mazkur komponentlari bir biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishni ta'minlaydi. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish asosida maqsadli blok aniqlanadi. Bunda talablarni maqsadga erishtiruvchi vazifalar taqdim etilib, yondashuvlar va tamoyillari axborot texnologiyalari orqali raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantiruvchi shart-sharoitlar aniqlandi. Mazmunli blokda talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid kasbiy kompetentlikga ega bo'lishning tarkibiy tuzilmasi: vazifalar, tamoyillar va yondashuvlardan iborat ekanligi ko'rsatilib o'tilgan. Operatsional blokda talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy tuzilma ta'lim shakllari, metodlari va vositalari kabi komponentlarni jamlangan. Baholash blokida esa, pedagogik tajriba bosqichlari baholash mezonlari va talabalarda axborot kompetentligini rivojlanganlik darajalari bilan ko'rsatish mumkin. Bu blokning natija komponenti talabalarda axborot kompetentligini rivojlanganlik darajasini doimiy tekshirib borishni tashxislashni ifodalaydi. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabarning axborot kompetentligini rivojlantirish maqsadida to'rtta vazifani belgilab olganmiz: Talabalarning axborot kompetentligini pedagogik-psixologik rivojlantirish zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'lumotni izlash, tahlil qilish, saralash, baholash va undan foydalana olish qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Pedagogik rivojlantirishda esa talabalar ta'lim jarayonida metodlar, uslublar va faoliyatlar orqali kompetentlikni shakllantirishadi. Psixologik rivojlantirishda talabalarning shaxsiy motivatsiya, tafakkur, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini baholash kabi jihatlari yuksaliriladi. Talabalarning tashkiliy-metodik ta'minotini loyhalashtirish- bu vazifa orqali talabalarda ta'lim jarayonida foydalaniladigan metodik materiallar, o'qitish vositalari, o'quv rejalari tashkiliy faoliyatlar (treninglar, seminarlar, loyihalar) bo'yicha ishlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Talabalarda axborot kompetentligi mazmuni va metodikasini ishlab chiqish – vazifasida talaba axborotni izlashi va topa olishi, axborotni tahlil qilishi va tanqidiy

baholashni, axborotni qayta ishlashni va saqlashni, axborotni ifodalash (prezentatsiya, matn, media shaklida), axborot madaniyati va axloqiy me'yorlarga rioya qilish o'rganadi. Talabalarda axborot kompetentligini baholash mezonlari va darajalarini aniqlashtirish- vazifasida talabalarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish va o'zlashtirish darajasini aniq mezonlar asosida, raqamli vositalar yordamida baholash tizimini ishlab chiqish orqali bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

Ta'limni tashkil etuvchi tamoyillar o'qitishning maqsad va vazifalarini yanada oshirishga qaratilgan bo'lib, tarbiya va o'qitish jarayonining faoliyati, yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi, talaba bilim, ko'nikma va malakalarni tashkil etishning asosiy qonuni va qoidalarni o'zida mujassam etadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki faoliyatni, ya'ni pedagog va talabaning dars faoliyatlari davomidagi o'quv jarayonini ham o'z ichiga oladi. O'qitish tamoyili ta'limning zarur masalalarini, ya'ni nazariy va amaliy jarayonidan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish darajalarini baholash quyidagi mezonlar tanlanildi. Kognitiv mezon: talabalarda axborot kompetentligini yaratish asosida ko'rsatuvchi maxsus va kasbiy bilimlarni mustahkamlashi uchun ochiqligini va boshqalarni aks ettiradi. Motivatsion-qadriyatli mezon: Talaba zamonaviy texnologiyalar vositasida kasbiy sohasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mutaxassis fanlariga bo'lgan qiziqishi, pedagogik salohiyatga ega ekanligi, mustahkamlagan bilimlarini uzatishga yo'naltirilganlik hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari vositalariga tegishli bilim va malakalarini yanada boyitishga intilishi sababli kelajakda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishiga bo'lgan harakatlari asosida ifodalanadi. Faoliyatli mezon: talabalarning mustahkamlagan bilimlarini aniq vaziyatlarda qo'llash kasbiy masalalarni yaratishga oid bilimlar, malakalar ularni samarali va mustaqil ravishda qo'llash, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini takomillashtiradi. Kreativ mezon: ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish va shu sohaga yangilik kirita olish faoliyatini yuqori darajada olib borishi ilmiy tadqiqot ishlarini olib bora olishi, o'z kasbiy sohasiga yanada ijodiy yondasha bilishi, til bilish kompetensiyasining takomillashganligi, yaxshi muloqotni o'rnatish asosida ifodalanadi.


Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlanganlik holatini baholash darajalari quyidagicha: Ijodiy (yuqori darajada) – talaba tomonidan muammo aniqlanadi va shakllantiriladi, o'z jarayonini o'zi tashkil qila oladi. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida axborot kompetentligini rivojlantira oladi va metodlarni tanlay oladi. Axborot kompetentligini yaratishdagi qarashi, maqsadi, ob'ekti va predmetini o'zi mustaqil tanlaydi. Olingan natijalarni ko'rsatish maqsadida o'z faoliyatini tahlil qila oladi. Produktiv (o'rta daraja) – Talaba tomonidan egallangan bilim va to'plangan tajribaga tayangan holda topshiriqlar bo'yicha axborot kompetentligini rivojlantirish ko'nikmasini ifoda etadi. Talaba vaziyatga qarab o'z faoliyatini tahlil eta oladi, maqsadni aniqlaydi, metodni tanlaydi va o'zini o'zi mustaqil ravishda tahlil qila oladi. Repraduktiv (past darajada) – talaba ma'lum bir yo'nalishga asoslanib shu tartibda axborot kompetentligini rivojlantirish

faoliyatini namoyish eta oladi. Lekin talaba o'zi uchun ajratilgan topshiriqlarni bajarish holatida emas. Pedagog yordami bilan farazni shakllantirish, maqsadni aniqlash va metodni tanlay oladi. Lekin talaba o'z faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qila olmaydi.

Modullilik tamoyili – bu o'quv dasturi yoki o'quv fani mustaqil, mazmunan yakunlangan, mantiqan bog'langan qismlar (modullar) orqali tashkil etiladigan yondashuv. Har bir modulda aniq maqsad, mazmun, o'quv faoliyatlari va baholash mezonlari mavjud bo'ladi. Texnologik tamoyil bu- ta'lim jarayonining zamonaviy, tizimli va texnika vositalariga asoslangan yondashuvi bo'lib, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Tizimlilik tamoyili – bu ta'lim jarayonining barcha komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, nazorat, natija) o'zaro bog'liq, uyg'un va mantiqiy tartibda tashkil etilishini anglatadi, ya'ni, har bir bosqich, har bir faoliyat boshqa bosqich bilan uzviy bog'liq, mustaqil emas, balki yagona tizimda ishlaydi. Yaxlilik tamoyili— bu pedagogik-axloqiy tamoyil bo'lib, o'quv jarayonida inson shaxsiga hurmat, mehr-muhabbat, e'tibor, tushunish va ma'naviy qo'llab-quvvatlash g'oyalari asoslanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan talaba shaxsiga nisbatan: hurmatli munosabatda bo'lish, ularning qadr-qimmatini e'tirof etish, individual yondashuv asosida mehr bilan ishlash va har bir talabani rivojlanishga loyiq deb bilish prinsipidir. Modellashtirish tamoyili – bu ta'lim mazmuni, jarayoni yoki natijasini oddiylashtirilgan, tushunarli, sxematik yoki grafik ko'rinishda ifodalash orqali o'rgatishga asoslangan yondashuvdir. Modellashtirish tamoyilini bir qancha xususiyatlari mavjud, bular tizimlilik, aks ettirish, loyihalash, tahlil qilish imkoniyati va boshqalar kiradi. Pedagogik axborotlashtirish tamoyili – bu ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvdir, ya'ni, bu tamoyil ta'limni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi (1-rasm).

Bugungi kunda pedagogik amaliyotga keng joriy qilinayotgan hamda talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish va o'quv kursining kasbga yo'naltirilganligini oshirishga yordam beradigan bir qator xususiy-didaktik o'qitish metodlarini qayd etish mumkin: diskussiya, Flipped classroom, imitatsiya, personalizatsiyalangan, (Delphi, PERT), insert tushunchalar tahlili metodlar.

Diskussiya: talabalar muayyan mavzu bo'yicha fikrlarini bildiradilar, o'zaro munozara qilishadi. Onlayn forumlar yoki videokonferensiyalar orqali interaktivlikni ta'minlash mumkin. Bu metod yana talabalarga yoki ishtirokchilarga o'z fikrlarini erkin bildirish, masalalarni muhokama qilish va turli nuqtai nazarlarga oydinlik kiritish imkonini beradigan ta'lim va trening metodidir. U ko'pincha guruhda yoki kichik jamoalarda amalga oshiriladi, bunda har bir ishtirokchi o'z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan muhokama qilish orqali o'rganadi. Diskussiya metodining bir qancha turlari mavjud ularni sanab o'tamiz:



1-rasm. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha o'qitish modeli

Tajribaviy diskussiya: ishtirokchilar o'z tajribalaridan foydalanib, o'z fikrlarini bildirib, mavzuga oid real misollar keltiradilar. Nazariy diskussiya: ushbu turda

ishtirokchilar nazariy bilimlar asosida fikr yuritadilar. Tartibli diskussiya: bu usulda har bir ishtirokchiga ma'lum vaqt ajratiladi va tartib bilan o'z fikrini bildirish kerak bo'ladi. Bevosita diskussiya: guruh a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va erkin fikr almashish. Shuningdek, diskussiya metodi o'quvchilarda o'zaro hurmat, fikrlarni tinglash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Flipped classroom: - talabalar uyda mavzuni o'rganishadi (masalan, video darslar orqali), darsda esa o'qituvchi bilan amaliy mashg'ulotlar va muhokamalar o'tkaziladi. Bu metod talabalarga faolroq o'rganishga imkon beradi. Bu ta'limda o'qitishning an'anaviy usulini o'zgartirishga qaratilgan innovatsion yondashuv bo'lib, unda o'quvchilarga bilimlarni o'z vaqtida mustaqil ravishda olish va darsda bu bilimlarni amaliy tarzda qo'llashga imkon beriladi. Bu metodning asosi shundaki, an'anaviy darsda o'qituvchi yangi materialni talabalarga tushuntirib, keyin uyga vazifa beradi. Flipped classroom metodida esa bu jarayon aksincha bo'ladi: talabalar yangi bilimlarni uyda mustaqil ravishda o'rganadilar (odatan videodarslar, onlayn resurslar yoki o'quv materiallari orqali), darsda esa o'qituvchi yordamida bu bilimlar amaliyotda qo'llanadi va mustahkamlanadi.

Dasturlarni baholash va tahlil qilish (PERT metodi). Loyihani boshqarishda loyihani baholash texnikasi yoki PERT ma'lum bir vazifa yoki faoliyatni tugatish vaqtini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu loyiha davomida barcha vazifalarni to'g'ri rejalashtirish va muvofiqlashtirishga yordam beradigan tizim. Shuningdek, u umumiy loyihaning borishini yoki uning yetishmasligini kuzatishga yordam beradi. Loyihani baholash texnikasini tasvirlash uchun oqim sxemasidan foydalaniladi. Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan turli vazifalar aniqlanadi. Vazifalarni to'g'ri tartibda qo'shganingizga ishonch hosil qilish va har bir vazifaning davomiyligini ko'rsatish zarur. Tarmoq diagrammasini yaratish, faoliyatlarni ifodalash uchun o'qlardan foydalanish va tugunlardan muhim bosqich sifatida foydalanish mumkin.

Imitatsiya metodi talabalar ko'z o'ngida raqamli ta'limdan qanday foydalanishni gavdalantirishga xizmat qiladi. Bu metod ta'limda talabalarga ma'lum bir jarayonni yoki faoliyatni real sharoitda yoki simulyatsiya yordamida ko'rsatish va o'rganishga asoslangan pedagogik usuldir. Bu metodda o'quvchilar biron bir ijtimoiy, kasbiy yoki amaliy faoliyatni takrorlash (imitatsiya qilish) orqali o'rganadilar. Imitatsiya jarayoni talabalarni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash, egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Imitatsiya metodining quyidagi turlari mavjud: Kasbiy imitatsiya: talabalar kasbiy faoliyatni takrorlashadi, masalan, shifokorlar uchun bemorni tekshirish, ustalar uchun qurilish jarayonlarini o'rganish va boshqalar. Ijtimoiy imitatsiya: ijtimoiy vaziyatlarni takrorlash, masalan, insonlar bilan muloqot qilish, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va boshqalar.

